

O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI

ISSN: 2181-3302

6.618

2024 Impact Factor

Exact
Natural
Medical
Technical
Economics
Philological
Pedagogical
Social sciences
and humanities



PEDAGOGIKA TA'LIM UNIVERSITETLARIDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSTISH TAMOYILLARI

Abdullayev Oybek Alisherovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Anontatsiya Ushbu maqolada psixologik xizmatlarning asosiy yo'nalishlari va urarning vazifalari haqida chop etilgan.

Kalit so'zlar: layoqat, ma'rifat, rivojlanish, kasb-hunar, profilaktika, korreksiya

Psixologik xizmatning asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

- **Psixologik ma'rifat** - psixologik bilimlarni egallash maqsadida pedagog va o'quvchilar (tarbiyalanuvchilar)ning shuningdek, ota-onalar yoki qonuniy vakillarning psixologik madaniyatini oshirish. Psixologik ma'rifatning vazifalari quyidagilardan iborat:- o'quvchilarga eng oddiy psixologik bilimlarni berish va ularning bu bilimlarni egallashiga erishish, tengdoshlari va katta lar bilan shaxslararo munosabatlarga kirishish, o'zlarining shaxsiy sifatleri va xarakter xususiyatlari, qobiliyatlari, layoqatlariga baho bera olish bilan bog'liq bo'lgan bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirish;- o'quvchilarda o'quv jarayoniga, o'qituvchilar va tarbiyachilar bilan muloqotga ijobiy munosabatni shakllantirish;- o'smirlar, yigit va qizlarning jinsiy tarbiyasi, ularning oila psixologiyasi va oilaviy munosabatlar, shaxsiy gigiyena va kasalliklarning oldini olish sohasidagi bilimlarni egallashiga erishish;- har bir bolaga individual yondashuvni amalga oshirishda pedagoglar, tarbiyachilar, ota-onalar yoki qonuniy vakillarning psixologik kompetentligini oshirish;- individual suhbatlar, ochiq darslar, seminarlar va maslahatlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali psixologik bilimlarni targ'ib qilish.

- **Psixologik-pedagogik tashxis** - o'quvchilarning qiziqishlari, layoqatlari, qobiliyatlari, qadriyatlar yo'nalganligi ijtimoiy ustanovkalari va munosabatlari, bilish va o'quv faoliyati motivatsiyalarini inobatga olgan holda ularning individual-psixologik va shaxs xususiyatlarini aniqlash va baholash. Psixologik-pedagogik tashxisning vazifalari;- 6-7 yoshdagi bolalarning boshlang'ich sinflarda o'qishga tayyorgarligini o'rganish maqsadida ularning psixologik rivojlanishi va qobiliyatlarini aniqlash;- ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktablariga qabul qilishda o'quvchilarning bilish va boshqa maxsus qobiliyatlarini aniqlash hamda baholash;- turli psixologik tashxis metodikalari yordamida o'quvchilar bilan test-sinovlari o'tkazish va suhbatlashish, natijalarni maktabda ta'lim olish davri mobaynida "Psixologik-pedagogik tashxis daftari" da qayd etib borish;- o'quvchilar (tarbiyalanuvchilar)ning iqtidori va potensial qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beruvchi psixologik-pedagogik sharoitlarni yaratish maqsadida ulardagi iqtidorni tashxis qilish orqali aniqlash;- umumta'lim muassasalari o'quvchilari va bitiruvchilarining kasb-hunar, mutaxassislik va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari ta'lim yo'nalishini

(kasb-hunar kolleji va akademik litsey) tanlashida ularning qiziqishi, layoqati va bilish qobiliyatlarini aniqlash;- tarbiyasi og'ir bolalar va o'smirlar bilan korreksion ishlarni amalga oshirish, ularni tarbiyalash, maktab hamda ijtimoiy muhitga moslashishini ta'minlash maqsadida individual-psixologik va shaxs xususiyatlarini aniqlash;- tashxis natijalari bilan o'quvchilar, ota-onalar yoki qonuniy vakillar, pedagoglarni tanishtirish, shaxsning ongli ravishda kasb- hunar tanlashini shakllantirish va rivojlantirishda ularga buning ahamiyatini tushuntirish;- shaxsiy muammolarning yechimini topish va ularga zarur psixologik yordam ko'rsatish maqsadida ota-onalar yoki qonuniy vakillar, pedagoglar (ularning roziligi olingan holda) bilan tashxis ishlarini olib borish.

- **Psixologik profilaktika** - bolalaming psixologik salomatligidagi buzilishlar, ularning intellektual, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishidagi salbiy og'ishlarni o'z vaqtida oldini olish. Psixologik profilaktikaning vazifalari:- Suhbatlashish va tashxis tekshiruvlari natijalari, shuningdek, ota-onalar yoki qonuniy vakillar va pedagoglardan olingan ma'lumotlar asosida bolalarning psixologik salomatligini aniqlash,- ijtimoiylashuv, ta'lim va tarbiya jarayonida shaxs shakllanishi hamda rivojlanishidagi og'ishlarning oldini olish bo'yicha choralar belgilash, bolalarning kattalar va tengdoshlari bilan muloqoti hamda munosabatlarida psixologik shikast yetkazuvchi omillarni bartaraf etishga yordam ko'rsatish;- asabiy-psixik zo'riqish va shaxs sifatlarining buzilishi alomatlari aniqlangan, shuningdek, addiktiv qaramlikda bo'lgan (alkogol, narkotiklar, toksik moddalarga ruju qo'yish, internet- qaramlik va boshqa shu kabi holatlardagi) o'smirlarga psixologik yordam ko'rsatish;- maktabgacha va umumta'lim muassasalari, mehribonlik uylari hamda oilada bolalar tarbiyasi va ta'limining psixogigiyenik shart-sharoitlariga rioya etilishini nazorat qilish, bu sharoitlar buzilgan holatlarda choralar ko'rish; - bolalar va o'smirlarni o'z qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlari va bilimlarini tatbiq etishni xohlagan hayotiy faoliyat sohalarini anglab yetishga tayyorlash;- ota-onalar yoki qonuniy vakillarga, pedagoglarga (ularning roziligi bilan) shaxslararo munosabatlarda, oilada yoki pedagogik jamoada nosog'lom psixologik iqlim muammolarini hal etishda psixologik yordam ko'rsatish, psixologik shikast yetka- zuvchi omillar ta'sirini bartaraf etish bo'yicha choralar ko'rish.

- **Psixologik korreksiya va rivojlantirish** - shaxsning shakllanishi hamda rivojlanishidagi kamchiliklarni tuzatish hamda og'ishlarni bartaraf etish, o'quvchilar (tarbiyalanuvchilar) muomalasi va xulq-atvoridagi buzilishlarni korreksiyalash, shaxsning psixik rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish. Psixologik korreksiya va rivojlantirishning vazifalari:- O'quvchilar (tarbiyalanuvchilar)dagi psixik jarayonlar, ijtimoiy ustanovkalar, subyektiv fikrlar va salbiy munosabatlar rivojlanishini korreksiyalash;- ta'lim va mustaqil o'quv faoliyati jarayonida o'quvchilarning bilish faolligi hamda qiziqishlarini rivojlantirish maqsadida ularning intellektual passivligini korreksiyalash;- tarbiyasi qiyin bolalar va o'smirlarning ijtimoiy ustanovkalari, munosabatlari, xulq-atvor motivlarini, ularning maktabga va ijtimoiy muhitga yetarli darajada moslasha olmaslik holatlarini korreksiyalash;- ta'lim-

tarbiya jarayoni barcha subyektlari o'rtasidagi normal shaxslararo munosabatlarni korreksiyalash va rivojlantirish;- o'quvchilar, ularning ota-onalari yoki qonuniy vakillariga, pedagoglarga psixologik korreksiya natijalarini, shaxsning normal rivojlanishi uchun bu natijalarning ahamiyatini tushuntirish;- pedagogik jamoa a'zolarining hissiy-emotsional holatlarini, shaxslararo munosabatlarni va ziddiyatli hatti-harakatini korreksiyalash, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish, rahbarlarning boshqaruv uslubini optimallashtirish.

- **Psixologik maslahat** - o'quvchilar, tarbiyalanuvchilar, ularning ota-onalari yoki qonuniy vakillariga, pedagoglarga shaxsiy muammolar va ziddiyatli munosabatlarni konstruktiv hal etilishida psixologik yordam ko'rsatish, shaxsning ichki psixologik imkoniyatlarini safarbar qilish uchun shart-sharoitlar yaratish.

Psixologik maslahatning vazifalari:- Maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlariga bolalarning intellektual, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishining yosh xususiyatlari, rivojlanishdagi buzilishlar hamda kechikishlar, ularni korreksiyalash, shuningdek, bolalarni boshlang'ich sinfda o'qishga va maktabga moslashuvga psixologik tayyorlash masalalari bo'yicha maslahatlar berish;- bolalarning boshlang'ich sinflardan o'rta sinflarga o'tishi, shuningdek, maktabni bitirish va bo'lg'usi kasb-hunar hamda ta'lim muassasasi (akademik litsey, kasb-hunar kolleji)ni tanlash masalalarida o'quvchilar, ota-onalar yoki qonuniy vakillarga maslahatlar berish;- maktab-internatlar, mehribonlik uylari, shuningdek, yetim bolalar ta'lim olayotgan umumta'lim muassasalari xodimlariga ta'lim-tarbiya, bolalarning ijtimoiylashuvi va moslashuvini psixologik kuzatish masalalari bo'yicha maslahatlar berish;- o'smirlar va yoshlarga kattalar va tengdoshlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlar, oilaviy muammolar, xulq-atvordagi og'ishlarni bartaraf etish, o'z-o'zini tarbiyalash va rivojlantirish, shuningdek, hayotiy va kasbiy o'zligini anglash masalalarida maslahatlar berish;- maktabgacha ta'lim, umumta'lim muassasalari, mehribonlik uylari rahbarlariga pedagogik jamoani boshqarishni optimallashtirish, qo'l ostidagi xodimlar bilan shaxslararo munosabatlar, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni hal etish hamda sog'lom psixologik muhitni ta'minlash masalalarida maslahatlar berish;- maslahat berish jarayonida o'quvchilar va tarbiyalanuvchilarda mustaqil ta'lim olish, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini korreksiyalashga ijobiy munosabatlarni shakllantirish hamda ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

- **Kasb-hunarga yo'naltirish** - o'quvchilarning individual qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlari, jamiyat va mehnat bozorining muayyan kasb va mutaxassisliklarga bo'lgan, ehtiyojlarini inobatga olgan holda ularni kasbiy o'zligini anglashlari uchun yordam berishga qaratilgan psixologik-pedagogik hamda tibbiy chora-tadbirlar majmui. Kasb-hunarga yo'naltirishning maqsadi - o'quvchilar va maktab bitiruvchilarini muayyan kasbni hamda akademik litsey yoki kasb-hunar kollejidagi ta'lim yo'nalishlarini ongli va mustaqil tanlashga tayyorlash. Kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy yo'nalishlari va vazifalari:- Kasbiy ma'rifat — o'quvchilarga

turli kasblar, ixtisosliklar, mansab lavozimlari, tanlangan kasbni, ixtisoslikni egallash mumkin bo'lgan ta'lim turlari hamda ta'lim muassasalari, shuningdek, kasbning insonga, uning jismoniy, psixologik va shaxsiy sifatlariga, salomatligiga qo'yadigan talablari haqida ma'lumotlar berish;- kasbiy maslahat - o'quvchilarga ularning individual xususiyatlari va mehnat bozori talablariga, ta'lim olish hamda kelgusida ishga joylashish imkoniyatlariga muvofiq kasb va ta'lim muassasasini tanlashga yordam berish;- kasbiy tashxis — o'quvchilarning bilish (o'quv predmetlariga, fanga) va kasbiy (kasblarga, mutaxassisliklarga) qiziqishlarini, kasb tanlash motivlari va kasbiy rejalarini aniqlash hamda baholash;- kasbiy tarbiya - bolalar va o'smirlarda mehnat malaka va ko'nikmalarini, kasblarga qiziqish, mehnatsevarlik, ishchanlik hamda mas'uliyatni shakllantirish va rivojlantirish. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Respublika tashxis markazi buyruqlari, me'yoriy hujjatlari va metodik tavsiyalari asosida barcha darajadagi tashxis markazlari tomonidan tashkil etiladi va bevosita ta'lim muassasalarining psixologlari tomonidan amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Z.T.Nishanova, G.K.Alimova PSIXOLOGIK XIZMAT. PSIXOKORREKSIYA
2. Sh.R.Barotov Ta'limda psixologik xizmat. – Buxoro: BuxDU-2007
3. N.Mirashirova Maktabgacha tarbiya muassasalarida psixologik xizmat. – Toshkent: TDPU,2003
4. Z.T.Nishanova Psixologik xizmat. – Toshkent: Yangiyo'l poligraf servis,2007
5. I.V.Dubrovina Prakticheskaya psixologiya v Obrazovanii. Moskva. Pedagogika,1998
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 2019-yil 12-iyuldagi 577-sonli qarori
7. E.G'oziyev, Sh.Azizova "Tashkiliy psixologiya". Toshkent 1999
8. Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda psixologik xizmat Darslik,"KAMOLOT" nashriyoti, 2023 yil. 332 bet.
9. Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda oilaga psixologik xizmat ko'rsatish amaliyoti. PEDAGOGIK MAHORAT Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 5-son (2021-yil, oktabr). Buxoro, 2021 y. B. 145-150.
10. Avezov O.R. Psychological relations between family members. Scientific Journal Impact Factor. VOLUME 2 | ISSUE 2. ISSN 2181-1784. SJIF 2022: 5.947 February 2022 www.oriens.uz. P-945-949
11. Avezov O.R. Mental Status and Behavioral Reactions in Emergency. and Extreme Emergencies AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH. ISSN: 2690-9626 Vol.3, No 1, 2022. <https://www.grnjournals.us/index.php/AJSHR/artisile/view/714>